

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№8

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
251 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayeich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayeich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayeich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosatning o'zaro ta'siri: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili.....	215
Irgashev Anvar Farxodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar.....	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	
Tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi.....	230
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish dastaklari	237
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Theoretical principles of cluster formation in metallurgical industry enterprises.....	243
Abdullayeva Matluba Nematovna	



JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARIGA DEKLARATSIYA ASOSIDA SOLIQ SOLISH MEXANZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Zafar Ismailovich,

Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0005-5654-7624

Annotatsiya: Maqolada deklaratsiya tushunchasi va uning amaliyotda qo'llanilish jihatlari, jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari tarkibi, jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishda deklaratsiya usulining qo'llanishi bu borada iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari hamda statistik ma'lumotlar tahlili amalga oshirilgan va tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, daromadlar, jismoniy shaxs, deklaratsiya, aholi daromadlari, soliq chegirmasi.

Abstract: This article gives the concept of a declaration and its application in practice, describes the structure of income of individuals subject to taxation on the basis of the declaration, considers methods of taxing the income of individuals by declaring, analyzes the studies of regarding scientific economists and statistical data, and develops relevant proposals.

Keywords: tax, income, individual, declaration, population income, tax deductions.

Аннотация: В статье дано понятие декларации и её применение на практике, приведена структура доходов физических лиц, подлежащая налогообложению на основе декларирования, рассмотрены способы налогообложения доходов физических лиц путём декларирования, проанализированы исследования ученых-экономистов и статистические данные в указанной сфере и разработаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: налог, доходы, физическое лицо, декларация, доходы населения, налоговые вычеты

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda soliq siyosatining roli beqiyosdir. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan adolatli, shaffof va samarali soliq solish tizimini shakllantirish har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sanaladi. Bugungi globallashuv davrida ko'plab rivojlangan davlatlar jismoniy shaxslarning o'z daromadlarini deklaratsiya qilishiga asoslangan ochiq soliq tizimini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda soliq deklaratsiyasi orqali fiskal nazorat kuchaytirilgan bo'lib, budjetga tushumlar oshgan va norasmiy iqtisodiyot hajmi qisqargan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda moliyaviy ochiqlik va soliq ma'murchiligini soddalashtirish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, hamda soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli ishlar — ularning barchasi daromadlar ustidan deklaratsiya asosida soliq solish tizimini joriy etish uchun muhim huquqiy va institutsional asos yaratmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, daromadlarni deklaratsiya qilish orqali soliqqa tortish — norasmiy daromadlarni aniqlash, budjet tushumlarini barqarorlashtirish, va eng muhimi — ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu tizimning samarali joriy etilishi uchun xalqaro tajriba asosida ilmiy yondashuv, mahalliy sharoitlarga moslashgan mexanizmlar va davlatning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatda fuqarolarning daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga erishiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Farmonlaridan [1] kelib chiqib, hayotga tatbiq etilayotgan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asosan "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 barobar qisqartirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi bugungi kundagi dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zero



mamlakatimiz Prezidenti “Xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va qudratli bo’ladi” [2] degan g’oyani ilgari surganlari bejiz emas.

Ma’lumki, 2020-yildan e’tiboran yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amaliyotga joriy etildi. Yangi Soliq kodeksiga muvofiq, ko’plab yangiliklar amaliyotga joriy etildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni ko’payib, o’zining ijobiy natijasini bermoqda [3].

Dunyo amaliyotida deklaratsiya asosida jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish, nafaqat davlat budjetiga soliq undirishni ko’zda tutadi, balki shu bilan birga soliq to’lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish orqali soliq imtiyozlaridan adolatli foydalanish imkoniyatlarini ham yaratadi. Shundan kelib chiqib, jahonning iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarida daromadlarga deklaratsiya asosida soliq solish usulidan bir necha yillar mobaynida keng foydalanib kelinmoqda. Xususan, AQShda olgan daromadlari bo’yicha deklaratsiya taqdim etgan fuqarolar soni 154,4 million nafar (jami aholi soniga nisbatan 47 foiz)ni, Buyuk Britaniyada 45 foiz, Germaniyada 28,6 foiz, Fransiyada 56,9 foiz, Yaponiyada 32,5 foizni tashkil etgan [4].

Hozirgi globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlarda jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish, daromad solig’i stavkasini pasaytirish orqali aholining real daromadini oshirish, daromadlar bo’yicha deklaratsiyalarni taqdim etishning elektron tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash masalasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatda jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish tartibi keng qo’llanilishi fuqarolarning korrupsiyaga moyilligini nazorat qilish usullaridan biri deyilsa xato bo’lmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Jahon tajribasidan ma’lumki, aholi daromadining yillar davomida ortib borishi bilan bir qatorda bozorda iste’mol tovarlarining narxi nazorat qilinishi ularning farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs mehnat qilish va shu qilingan mehnati evaziga ma’lum daromad olish huquqiga ega.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti, “Samarali mehnat uchun zarur shart-sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budjet tashkilotlarida ham, xo’jalik yurituvchi subyektlarda ham o’rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko’paytirish e’tiborimiz markazida bo’ladi [5]” deya ta’kidlab o’tidilar. Darhaqiqat, munosib turmush darajasini ta’minlash va xodimga ishlagan vaqti uchun munosib haq to’lanishi lozim. Bundan tashqari ish vaqtidan tashqarida bajariladigan ishlar, qo’shimcha ishlar uchun ham rag’bat va moddiy ta’minot berilishi ish sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Deklaratsiya tushunchasining mazmun mohiyatiga to’xtaladigan bo’lsak, deklaratsiya so’zi – lotincha *declaratio* so’zidan kelib chiqqan holda ma’lum qilaman, e’lon qilaman ma’nolarini anglatadi [6].

Daromadlar deklaratsiyasi tushunchasi ilmiy manbalarda quyidagicha ta’riflangan. Daromad deklaratsiyasi - moliya yoki kalendar yilida fuqarolar (jismoniy shaxslar) tomonidan soliqqa tortiladigan jami daromadlari ko’rsatilgan va davlat organlariga taqdim etiladigan xabarnoma. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlarda mulk deklaratsiyasi bilan bir qatorda joriy qilingan [7].

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligiga ko’ra jami yillik daromad to’g’risidagi deklaratsiya soliq to’lovchining olingan yillik daromadi to’g’risidagi yozma arizasidan iborat ekanligi e’tirof etilgan [8].

Yillik daromadni soliqqa tortishning deklaratsiya usuli g’arb davlatlarining aksariyatida qo’llanilib, ijobiy natijalar berayotganini ta’kidlash mumkin. Soliqqa tortishning bunday usuli XX asrning 20-yillarida AQSh va Yevropa davlatlarida o’tkazilgan soliq islohotidan so’ng keng qo’llanila boshlangan [9]. Iqtisodiy taraqqiy topgan davlatlarning aksariyatida aholi soliq muassasalariga o’tgan moliya yili davomida olgan har bir daromad miqdori va manbai haqidagi ma’lumotni daromad olish bilan bog’liq xarajatlarni ifodalovchi hujjatlar bilan birga topshirishi talab etiladi. Ya’ni, aholi o’zining yillik daromadi va uni olish bilan bog’liq ayrim xarajatlarni deklaratsiyada aks ettiradi. Taqdim qilingan deklaratsiya soliq inspektorlari tomonidan tekshirib chiqilib, qabul qilinishi yoki o’zgartirilishi mumkin. Aksariyat hollarda soliq sub’ektlariga yil davomida to’lagan mablag’larining bir qismi davlat budjetidan qaytarib beriladi.

Jahon banki va Garvard universiteti olimlari deklaratsiyalarni faqatgina korrupsiyaga qarshi organlar tomonidan ichki tekshirish yetarli emasligini, ular deklaratsiyalarni ommaga e’lon qilish bilan birlashtirilishi kerakligi haqida ishonchli dalillar keltirganlar. S.Dyankov va uning hamkasblari tomonidan Transparency International nodavlat xalqaro tashkilotining korrupsiyani anglash indeksiga ega bo’lgan 175 mamlakat bo’yicha deklaratsiya tizimiga oid empirik ma’lumotlarni qiyoslash asosida deklaratsiyaning samaradorligini ta’minlash uchun uning ommaga oshkora bo’lishi juda muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelishgan [10].

Xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari tomonidan jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida

soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmi xususida munozarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.Yermasova o'zining ilmiy izlanishlarida oilaviy soliqqa tortish masalasini ko'tarib chiqadi hamda oila a'zolari tarkibiga qarab soliq stavkalarini tabaqalashtirish va oila daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish ijobiy natija ko'rsatishini asoslab beradi [11].

Yu.B. Kolobayeva oilaviy deklaratsiyalash masalasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borib, oilaviy deklaratsiyalash tizimiga o'tish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning tub mohiyatiga to'g'ri kelib, turmush farovonligining yaxshilanishini ta'minlaydi degan xulosaga keladi [12].

A.S.Galyautdinova oilaviy daromadlarni deklaratsiyalash tizimiga to'xtalib, konsolidatsiyalashgan guruh tushunchasini ilgari suradi. Bu guruhga oiladagi er-xotin va uning farzandlarini ham kiritish maqsadga muvofiqligini keltirib o'tadi. Ya'ni, oilaning umumiy daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda voyaga yetmagan farzandlarni ham inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi [13].

O.N.Savina ham oilaviy daromadlarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish masalasiga e'tibor qaratadi. Muallif oila daromadlari umumlashgan holda qaralishi lozim, qaysi birga topib birga iste'mol qilinganda degan g'oyani ilgari suradi [14].

Yuqorida keltirilgan aksariyat iqtisodchi olimlar daromadlarni deklaratsiyalash mexanizmini oilaviy farovonlirni ta'minlash hamda aholi sonining barqaror o'sish ko'rsatkichini saqlab qolish maqsadida, o'z davlati ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda fikr-mulohazalarini bildirishgan. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda oilaviy holatni yoki farzandlar tarkibini inobatga olib deklaratsiyalash mexanizmini qo'llash ijobiy natija beradi deb aytolmaymiz. Lekin oilaviy farovonlikni ta'minlash maqsadida ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarini deklaratsiya asosida chegirish mexanizmini yanada kengaytirish o'zining ijobiy natijasini beradi degan fikrdamiz.

Bevosita jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning muammolarini tadqiq etgan A.Adizovning "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishida davlat budjeti daromadlari shakllanishida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni hisoblash mexanizmi tadqiq etilib, mazkur soliqning budjet daromadlari shakllanishidagi salmog'ini oshirish masalalari o'rganilgan [15] bo'lsa, I.Yuldashevning "Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini joriy etish masalalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida esa jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini Respublikamiz amaliyotida joriy etish bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan [17]. M.Usmanovning "Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida esa jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishning afzallik jihatlari tadqiq etilib, daromad solig'ining aholi turmush farovonligini oshirishga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil etilgan [18].

M.S.Usmanova tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida daromad solig'ini qo'llashda soliqqa tortil-maydigan daromad miqdorini aniq belgilash va amaliyotga joriy qilish, daromadlarni deklaratsiyalashda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlarini daromaddan chegirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, M.Usmanova respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimiga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, deklaratsiya asosida chegirmalarni qo'llashda milliy mentalitetning inobatga olinishi yuzasidan taklif va mulohazalar bildirgan [19].


Darhaqiqat, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fuqarolarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va uni xalqaro andozalar asosida takomillashtirish davr talabiga aylandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy va tizimli tahlil usullardan foydalanilgan. Adabiyotlarni tahlil qilishda Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan. Maqolada jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishda deklaratsiya usulining qo'llanishi bu borada iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari hamda statistik ma'lumotlarga tayanilib tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi amaldagi soliq qonunchiligiga asosan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solinadi (1-rasm):




1-rasm. Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromatlari tarkibi [19].

Shu o'rinda alohida e'tibor qaratish kerakki, jismoniy shaxslarning mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlariga soliq solish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to'lovchi daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, lekin chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak. Misol uchun jismoniy shaxs mualliflik haqi tariqasida 5 000 000 so'm daromad oladigan bo'lsada ushbu daromadga ega bo'lish uchun 2 000 000 so'm xarajat qilgan bo'lsa, daromadidan deklaratsiya asosida 1 500 000 so'm ($5\,000\,000 \times 30\%$) gacha chegirish huquqiga ega. Demak ushbu holatda jismoniy shaxs (muallif) 3 500 000 so'mdan 12 foiz daromad solig'i to'lashiga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda daromadlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan taqdim etilgan deklaratsiyalar soni yildan-yilga ortib bormoqda bu quyidagi rasm ma'lumotlarida o'z aksini topgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda deklaratsiya taqdim etgan jismoniy shaxslar soni hamda deklaratsiya natijasida hisoblangan daromad solig'i miqdori [21].

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

2022-yilning natijasiga ko'ra soliq organlariga 565,1 ming nafar fuqarolardan daromadlari bo'yicha deklaratsiya olinib, ularning soni 2013-yildagiga nisbatan deyarli 3 barobarga, 2021-yildagiga nisbatan esa deyarli 28,0 ming nafarga ko'paygan. 2020-yilda deklaratsiya taqdim etuvchilar soni kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu holatni soliq islohotlari natijasida proporsional soliq stavkasining joriy etilishi hamda global pandemiyaning ta'siri bilan izohlash mumkin.

Bundan tashqari, Microsoft Excel amaliy dasturi yordamida parabolik trend chizig'i $y = 7,1307x^2 - 113,79x + 104,89$ va bog'liqlikning aniqlik darajasi $R^2 = 0,907$ topildi. Bog'liqlikning aniqlik darajasi 90,7% ekanligiga qaraganda keyingi yillarda ham deklaratsiya topshiruvchi jismoniy shaxslarning soni shu sur'atda ortishini kutishimiz mumkin.

Jismoniy shaxslar tomonidan yil davomida olingan daromadlari bo'yicha soliq idoralarga deklaratsiya topshiruvchi fuqarolar soni ko'payishi bilan to'g'ri proporsional ravishda qo'shimcha hisoblangan daromad solig'i miqdori ham ko'payib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Deklaratsiya asosida budgetga undirilishi nazarda tutilgan daromad solig'i summasi 2013-yilda 20,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil natijasiga ko'ra 305,9 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etib 15,2 barobarga ko'payish ko'rsatkichiga ega.

Yillar hamda deklaratsiya bo'yicha budgetga undirilgan soliqlar miqdorlarining bog'liqligini ham Microsoft Excel amaliy dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, parabolik trend chizig'i $y = 2,2205x^2 + 6,4229x + 10,517$ va bog'liqlikning aniqlik darajasi $R^2 = 0,9505$ topildi. Bog'liqlikning aniqlik darajasi 95,05 % ekanligiga



qaraganda kelgusi yillarda ham deklaratsiya bo'yicha budjetga undirilgan soliqlar miqdori ham shu sur'atda ortishini kutishimiz mumkin.

Bugungi kunda respublikamizda jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibida mulklarni ijaraga berish natijasida olinadigan daromadlar muhim o'rinni egallaydi va deklaratsiya asosida soliqqa tortiladi. Shunday ekan o'zlariga tegishli mulklarini ijaraga berish natijasida daromadlar olayotgan jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish mexanizmiga atroflicha to'xtalamiz.

Respublikamizda amaldagi qonunchilikka ko'ra jismoniy shaxslar o'z mol-mulklarini ijaraga berishlari qonuniy tartibga solingan. Bir vaqtning o'zida mol-mulk ijarasi mulkiy daromad sifatida tan olinib soliq qonunchiligiga ko'ra deklaratsiyalanadi.

Yuqoridagi 1-rasmning 1.3-bandiga asosan mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar albatta daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi. 2025-yil uchun ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, jumladan mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summolari qonun [22] bilan belgilandi.

Jismoniy shaxslar tomonidan o'zlariga tegishli mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida ijara to'lovining eng kam stavkalari qo'llaniladi (1-jadval).

Quyidagi 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslarning uy-joyi, noturar ob'ekti va avtotransport vositasini ijaraga berishdan olgan daromadlariga soliq solish ijara shartnomasida belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, biroq ushbu mol-mulklarni ijaraga topshiruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam stavkalariga asosan hisoblangan miqdorlardan kam bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Shunga e'tibor qaratish joizki, 2025-yil uchun belgilangan miqdorlar 2021-yildagi stavkalarga nisbatan o'rtacha 1,5 barobarga ko'paygan. 2014-yilda belgilangan eng kam meyorlarga nisbatan esa o'rtacha turar va noturar joylarni ijaraga berilish holati 6-7 barobarga, avtomobillarni ijaraga berilganda ham ijara to'lovining eng kam stavkalari yildan-yilga ko'paytirib belgilangan.

1-jadval: Mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari [22] (so'mda)

Obyekt nomi	Yillar	Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa aholi punktlari
Turar joy (1 m2 uchun)	2014	3 000	2 000	1 000
	2021	14 000	8 500	4 000
	2025	28 000	13 500	5 500
Noturar joy (1 m2 uchun)	2014	6 000	4 000	2 000
	2021	29 000	17 000	7 500
	2025	45 000	26 500	11 000
Yengil avtomobil (8 ta o'rindiqqacha) (har bir avtomobilga)	2014	220 000		
	2021	575 000		
	2025	858 000		
Mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobillari (har bir avtomobilga)	2014	430 000		
	2021	1 150 000		
	2025	1 705 000		

Joriy yildan belgilangan meyorlarni albatta ijobiy deb baholash mumkin. Misol sifatida e'tibor qiladigan bo'lsak, Toshkent shahrida maydoni 50 m2 bo'lgan noturar mulkni ijaraga berilishi eng kamida 2 250 000 (50 x 45 000) so'mga to'g'ri kelmoqda, vaholanki bugungi kunda amalda ushbu keltirilgan meyordan bir necha barobar ko'p summaga ijara berilish holatlarini kuzatish mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra 1-jadval ma'lumotlariga muvofiq jismoniy shaxslarning ko'chmas mulklarini ijaraga berishning eng kam me'yorlari:

- Toshkent shahri;
- viloyat markazidagi shaharlar
- boshqa aholi punktlari uchun har xil qiymatda belgilangan.

Biroq, bugungi kunda viloyat markazi bo'lmagan shaharlar (Olmaliq, Shahrisabz, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Kattaqo'rg'on, va h.k.)da turar joyini ijaraga berish 5 500 so'm va noturar mulkni ijaraga berish 11 000 so'm miqdorda belgilangan. Ya'ni, tumanning chekka hududi hamda viloyat markazi bo'lmagan shaharlarda ija-



raga berishning eng kam miqdorlari bir xil. Ushbu holat bo'yicha adolatlilikni ta'minlash maqsadida taklif ishlab chiqildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish mexanizmining qo'llanilishi borasida ko'pgina ijobiy islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan ushbu sohani yanada takomillashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borish, muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- Jismoniy shaxslarning deklaratsiyalanadigan daromadlariga soliq solishni takomillashtirish jismoniy shaxslarga nisbatan soliq yukining kamayishi, aholi real daromadlarining ko'payishi hamda soliq ma'muriyatchiligidan yanada takomillashtirishga xizmat qiladi;

- shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish bu borada deklaratsiya usulini qo'llash tartibini yanada takomillashtirish ya'ni bosqichma-bosqich umumdeklaratsiyalash tizimiga o'tish asosida soliqqa tortish mexanizmini bugungi kun talablariga moslashtirish jismoniy shaxslarning daromadlarini to'liq va o'z vaqtida soliqqa tortilishini ta'minlashga xizmat qiladi;

- jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda deklaratsiyalash amaliyotining qo'llanilishi mamlakatda yashirin iqtisodiyotga, pul mablag'larining noqonuniy aylanishiga, korrupsiya va poraxo'rlikka hamda iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlarning vujudga kelishi va uning oldini olishga xizmat qiladi;

- bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash ishlariga etarli daraja e'tibor qaratilib kelinmoqda, ammo, bolalar adabiyotini yaratishga qiziqish kamligi bilan birga kitoblarning narxi ham qimmatligicha qolmoqda. Shu bois, Soliq kodeksining 378-moddasiga bolalar adabiyoti va badiiy adabiyotlarni tayyorlaganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishida olingan daromadlarni daromad solig'idan to'liqligicha ozod qilish tarzidagi imtiyozni qo'llash lozim. Buning natijasida kitobxonlarning kitob o'qishga qiziqishi ortadi, kitobni xarid qilish qobiliyati kengayadi hamda sifatli kitob mahsulotlari tayyorlanishiga erishiladi;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarning daromadlari va xarajatlarini deklaratsiyalash tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni joriy qilish maqsadida, birinchi navbatda nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari rahbar va xodimlari hamda ularning oila a'zolarining daromadlari va xarajatlarini deklaratsiyalash tizimiga o'tkazish ishlarini jadallashtirish maqsadga muvofiq;

- xorijlik iqtisodchi olimlarning ta'kidlaganidek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirish uchun emas, balki aholining real daromadlarini oshirishga ham xizmat qilishi lozim, bu maqsadda fuqarolar tomonidan qilingan ijtimoiy (ta'lim sog'liqni saqlash, sug'urta, majburiy to'lovlar va h.k.) xarajatlar soliqqa tortilmasligi kerak;

- daromadlarga deklaratsiya asosida soliq solish samaradorligini oshirish hamda hisoblangan soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida undirilishini ta'minlash maqsadida, soliq majburiyati to'g'risida ma'lumotlar taqdim etuvchi tashkilotlarning ma'lumotlar bazalarini soliq organlarining axborot-resurs bazasiga on-line tarzda integratsiya qilish, deklaratsiya natijasida soliq solinadigan daromadlar summasini to'liq aniqlash hamda soliqning o'z vaqtida undirilishini ta'minlashda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi;

- budjet daromadlariga qo'shimcha manbalarni shakllantirish hamda soliqqa tortishning adolatlilikini ta'minlash maqsadida, mulklarni ijaraga berishning eng kam meyorlariga alohida, boshqa shaharlar (viloyat markazi hisoblanmagan) uchun minimal miqdorlarni masalan, viloyat markazlari va tumanlar uchun belgilangan miqdorning o'rtachasini belgilash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi takliflar va tavsiyalarning amaliyotga qo'llanilishi natijasida mamlakatimizda jismoniy shaxslarning deklaratsiya natijasida soliq solinadigan daromadlar manbai ortishi va ularni soliqqa tortish mexanizmi yanada takomillashtirilishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. //Xalq so'zi. 2022-yil 28-yanvar..
2. Sh.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent - "O'zbekiston" – 2017 y 126-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi Internet manba "prezident.uz". 2020 yil 24 yanvar.
4. <https://www.irs.gov/newsroom/filing-season-statistics-for-week-ending-november-23-2018>, <https://www.bbc.com/news/business-40117521>, <https://www.make-it-in-germany.com/en/jobs/taxes/income/>, <https://www.statista.com/statistics/466835/number-income-taxpayers-france/>, http://pij-web.net/pdf/stj_eng/1.pdf.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent: "O'z-



- bekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
6. O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi (D harfi) 243-bet.
 7. O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi (D harfi) 207-bet.
 8. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 396-moddasi. T.: Adolat 2021-y.
 9. Jumayev Sh. "O'zbekiston Respublikasida soliq islohotlarini takomillashtirish muammolari va istiqbollari" magistr darajasini olish uchun yozilgan magistrlik dissertatsiya. 54-bet.
 10. Djankov, Simeon [et al.] Disclosure by Politicians // American Economic Journal: Applied Economics 2 .- April 2010.– pp. 179-209.
 11. Ермасова Е.Б. Неравенство в налогообложении доходов физических лиц для нерезидентов. Изв. Саратов. Ун-та. Нов.сер. Экономика. Управления. Право. 2014. Т. 14. Вып 4.
 12. Колобаева Ю.Б. «Семейный налоговые декларации в налогообложении дохода физических лиц». «Экономика и социум». №3 (34) 2017.
 13. Галляутдинова А.С. «Семья как участник налоговых правоотношений». Налогообложении физических лиц — № 6 (96).2012.14. Савина О.Н. «Семейное налогообложение как инструмент усиления социализации налоговой политики на современном этапе». Социальная сфера 19(208)-2013.стр.52-57.
 14. Adizov A.J. "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish" i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: DJQA, 2004-21 b.
 15. Yuldashev I.S. "Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini joriy etish masalalari". i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: BMA, 2002. 22, 21-betlar.
 16. Usmanova M.S. "Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish". Diss avtoreferati. Toshkent BMA, 2011. 23, 19, 15 betlar.
 17. Bozorov A.A. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish: monografiya. – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy texnik instituti. Toshkent - 2020. 51-b.
 18. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-741-sonli qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (395-modda) – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.– Toshkent, 2022 . – 473 b.
 19. <http://www.soliq.uz> -O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
 20. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son qonuni va har yilgi qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining budjet parametrlari to'g'risidagi qarorlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100